




Xalqaro Nordik universiteti,  
UZREPORT Axborot agentligi  
hamkorligida



## Akademiyaning missiyasi:

✓ Axborot madaniyati sohasida amaliy ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash, respublikada mavjud kadrlar – jurnalistlarning malakasini oshirish uchun platforma vazifasini o'tash

## UZREPORT JURNALISTIKA, MEDIA VA KOMMUNIKATSIYALAR AKADEMIYASI



✓ Talabalarda kasbiy ko'nikmalarini oshirish, huquqiy, kasbiy odob-axloq savodxonligini izchil shakllantirish

## Akademiyaning maqsadi

Jurnalistika yo'nalishi (bakalavriat) va mutaxassisligi (magistratura)da sifatli dual ta'lim orqali eng zamonaviy tendensiyalar asosida xolis, tezkor va kreativ nuqtai nazar, professional bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli jurnalist kadrlar, yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash.



✓ Bo'lajak matbuot kotiblarida zamonaviy media-kontent, OAV va ijtimoiy tarmoqlar uchun tezkor materiallar, PR materiallari, press-relizlar, mualliflik ko'rsatuvlari tayyorlash borasidagi kompleks bilimlarni shakllantirish

## DUAL TA'LIM



### Nazariy qism

Ta'limning nazariy qismi Xalqaro Nordik universitetida o'tkaziladi

01

02

### Amaliy qism

Ta'limning amaliy qismi esa ish joyida va "UzReport" TV bazasida o'tkaziladi



### Dual ta'limda:

- Talabalar uchun jamoaviy loyihalar, xorijiy va mahalliy ilmiy grantlar;
- Startap loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha treninglar;
- Nufuzli xorijiy ekspert-jurnalistlardan "mahorat darslari";
- Binar ma'ruzalar;
- Mahalliy telekanallarda amaliyot;
- Finlyandiya, AQSH, Koreya, Italiya, Shvetsiya, Vengriya, Fransiya davlatlarida stajirovkalar.


### Kutilayotgan natijalar:

- Professionalik va yuqori kasbiy sifatlarga ega jurnalistlar armiyasi yetishib chiqadi;
- Media landshaftni yolg'on tarqatish, soxta axborot sizdirish – dezinformatsiyadan tozalanadi;
- Jamoatchilik fikrida ishonchli ma'lumotlar asosida ijobiy o'zgarishlarga erishiladi;
- Keng omma sifatli axborotni manipulyatsiya yoki yolg'on ma'lumotdan farqlashga o'rgatiladi;
- Global media makon axborot ekotizimini xiralashtiruvchi holatlar tezkor bartaraf etib boriladi;
- Sifatli kontent yaratish orqali jamiyatni barqarorlashtirishga ixtisoslashgan kadrlar armiyasi safi kengaytirib boriladi.

## TARMOQ – KORXONA – OLIYGOH

**Kadrlar  
tayyorlashda  
inobatga  
olinadi**

dual ta'lim jarayonida ishtirokchi jamoalar;  
kadrlar buyurtmachilari fikri va talablari;  
media makondagi mavjud vaziyat va istiqbollar;  
davlat manfaatlari.



### **Xalqaro Nordik universiteti**

qabul jarayonini tashkil etish, malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilish, talabalarga oliy ta'lim talablari va xalqaro tajribalar asosidagi o'quv reja va fan dasturlari bo'yicha sifatli akademik ta'lim beradi. Ta'lim jarayoni kadrlar buyurtmachisining talablariga maksimal darajada muvofiqlashtiriladi.

### **UZREPORT Axborot agentligi**

talabalarda o'qish davomida parallel ravishda "UzReport" TV, Futbol TV kanallari, [www.uzreport.news](http://www.uzreport.news) portalida amaliy ko'nikmalarni oshirib borish, muxbir, texnik xodim, operator, montaj ustasi, suxandon, kontent menejer, ovoz muhandisligi, ijtimoiy tarmoqlarda SMM yordamchisi sifatidagi kasbiy malakalarini oshiradi.

### **Kadrlar buyurtmachisi**

axborot xizmati xodimining oliy ta'lim olishiga moddiy-ma'naviy ko'maklashadi, kadrga bo'lgan talab va takliflarini dual ta'lim tashkilotchilariga ma'lum qilib boradi.

### **Talaba**

- \* jurnalistik faoliyat yuritishning barcha jihatlarini sohaning eng yaxshi mutaxassislaridan o'rganadi;
- \* zamonaviy jurnalistika talablariga javob beradigan nazariy bilimlar olib, amaliy ish bilan uyg'unlashtiradi;
- \* sifatli mediakontent yaratadi va keng jamoatchilikka turli tillarda yetkazish ko'nikmalariga ega bo'ladi.



## NEGA AYNAN USHBU AKADEMIYADA O'QISH KERAK?

### Mahalliy ahamiyati va afzalliklari:

01

Dunyoning 100 dan ortiq davlatida namoyish qilinadigan, 24 soat efirga uzatiladigan telekanal – UzReport TV da amaliy bilimlarni mustahkamlash;

02

O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritib boradigan [www.uzreport.news](http://www.uzreport.news) kabi yirik axborot resurslarida amaliy bilim olish;

03

Jonli efirda ishlash mahorati, yangiliklar dasturini tayyorlash, ssenariy yozish, mualliflik ko'rsatuvlari yaratish kabi professional mahoratga ega bo'lish;

04

Akademik ta'lim davomida G'arb va Sharq jurnalistikasi tarixi, media huquqi va etikasi, media tili va uslubi, xalqaro jurnalistika janrlarini o'rganish;

05

Barcha OAVlar, nashriyotlar bilan hamkorlikka ega oliy o'quv yurtida so'nggi texnologiyalar bilan jihozlangan qulay sharoitlarda ta'lim olish;

### Xorijiy tajribalar:

01

Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan Finlyandiya, AQSH, Koreya, Italiya, Shvetsiya, Vengriya, Fransiya davlatlarida stajirovka o'tash;

02

Reuters, Bloomberg, CCTV kabi xalqaro axborot agentliklar va Discovery, National Geographic loyihalari, mahorat saboqlari;

03

Eng erkin matbuot reytinglarida yetakchi bo'lib kelayotgan, tizimlar shaffofligi bois yuqori o'rinni egallab turgan Finlyandiya tajribalarini o'rganish;

04

Dunyodagi eng baxtli davlat, xavfsiz va barqaror, ommaviy axborot vositalari va so'z erkinligiga ega davlatda fin tajribalarini o'rganish;

05

Yetakchi davlatlar OAVlari tajribalari, shuningdek, eko-turizm targ'ibotchilari bo'lgan ekójurnalistlar tayyorlash vazifalariga ustuvor ahamiyat qaratiladi.